Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

## ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*

**к договору (контракту) от 22.12.2022 г. № 333-4-57-OB/2022**

**между " Тож Махал Дунё" МЧЖ и Дехконобод туман ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 781580383,00**

Глава 110

Казначейский лицевой счёт 100022860102127065200110003

(в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | | Всего |
|---|---|---|---|---|
| | 4233900 | | | |
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | 781 580 383,00 | | | 781 580 383,00 |
| **Всего за год** | **781 580 383,00** | | | **781 580 383,00** |

Всего 781580383,00 сум

Семьсот восемьдесят один миллион пятьсот восемьдесят тысяч триста восемьдесят три сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 234474114,90 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в _________ мес. 20__ г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _______% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика _____________ (подпись) Химматов Жовли Холбутаевич Ф.И.О.

М.П.

Главный бухгалтер заказчика _____________ (подпись) Абдулазизов Шерали Баймуратович Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _____________ (подпись)

Получил работник заказчика _____________ (подпись)

«___» _______________ 20___г.

«___» _______________ 20___г.

22«12»2022 yil. **333-4-57-OB/2022-son**

# PUDRAT SHARTNOMASI

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Dehqonobod tuman obodonlashtirish boshqarmasi nomidan nizom asosida ish yurituvchi boshqarma boshlig'i J.Himmatov bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan Toj Maxal Dunyo» Yul qurilish Mas'uliyati cheklagan jamiyati nomidan Nizom asosida ish yurituvchi rahbari F.Azizov ikkinchi tomondan, Qashqadaryo viloyat Dehqonobod tumani Beliboyli MFY Xoji Ibragim ota qishlog'i Kichik ura daryosi uzanidagi uzunligi 60 metr bulgan piyodalar o'tish ko'prigini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish va belgilangan tartibda buyurtmachiga topshirishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

## 1. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda piyodalar utish kuprigini joriy ta'mirlash ishlarining ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

## 2. SHARTNOMA MAVZUSI

2.1. Pudratchi mazkur`shartnoma buyicha **Dehqonobod tumani Beliboyli MFY Xoji Ibragim ota qishlog'i Kichik o'ra daryosi uzanidagi uzunligi 60 metr bulgan piyodalar utish ko'prigini** joriy ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan holda bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Daryo o'zanidagi ko'prikni joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul kilish va mazkur kuprikni joriy ta'mirlash ishlari uchun

pudratchi tomonidan sarflangan barcha sarf xarajatlarni pudratchiga to'lik to'lash majburiyatini oladi.

## 3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

3.1. Mazkur shartnoma buyicha «Pudratchi» tomonidan Dehqonobod tumani Beliboyli MFY Tillatepa kishlog'i Kichik o'ra daryosi o'zanidagi uzunligi 45 metr bo'lgan piyodalar o'tish kuprigini joriy ta'mirlash ishlari loyiha-smeta hujjatlariga xamda "Buyurtmachi" tomonidan o'tkazilgan tender bayonnomasiga asosan barcha soliklar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **781580383 (Yetti yuz sakson bir million besh yuz sakson ming uch yuz sakson uch )** so'mni, shartnomaning 7-bulimi 13,14-bandlariga muvofik dastlabki avans qiymati **234474114 ( Ikki yuz o'ttiz to'rt million to'rt yuz yetmish to'rt ming bir yuz o'n to'rt )** so'mni yoki shartnomaning summasining 30 foizini tashkil etadi.

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:Kuprikni joriy ta'mirlash ishlari xajmi va qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarining ta'siri sabab bo'lganda, Bajariladigan ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;Ob'ektda ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari bir yildan ortiqqa muddatga o'zgartirilganda.. Ob'ektda ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, tomonlar o'rtasida ayrim ishlarni bajarish lozim deb topilgan taqdirda, o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

## 4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:Ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari boshlanishdan oldin ob'ektda joriy ishlarini olib borish davri uchun buyurtmachi tomonidan tayinlangan mas'ul vakildan qurilish maydonini xamda foydalanuvchi tomonidan esa qurilish maydonidagi ayrim eski elementlarni dalolatnoma asosida qabul qilib oladi. Qurilish maydonini xamda ob'ektning geodeziya nuktalarining o'z vaktida topshirishi va tug'riligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.Ob'ektning ijro xujjatlarini rasmiylashtirish va buyurtmachiga topshirish, qurilish materiallarining muvofiqlik sertifikati, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarning texnik pasportini taqdim etadi;shartnoma shartlariga asosan ob'ektni buyurtmachiga tasdiqlangan loyihaga muvofiq topshiradi;barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda uning 1-ilovasida belgilangan, ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'zining kuchlari va jalb qilingan kuchlar bilan qurilish qoidalari va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga

muvofiq topshiradi;Ob'ektga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, boshqa xom-ashyolar va qurilish texnikasini o'z vaqtida hamda zarur xajmlarda yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni amalga oshiradi;zarur xollarda qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar quradi;Buyurtmachini, yordamchi pudratchilar bilan pudrat shartnomalari tuzilishi davomida, ushbu shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, yordamchi pudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qiladi;qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi;mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatadi;qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi;mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.Fors major xolatlari bundan mustasno. Tekshirish vaktida aniqlangan kamchiliklarni ( fors major xolatlari bundan mustasno) o'z kuchi bilan bajaradi, aniqlangan kamchiliklar uchun javobgarlikni uz zimmasiga oladi.

## 5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, xususan buyurtmachi pudratchi bilan doimiy alokada ishlashi uchun buyruq asosida uzining texnik vakilini rasman tayinlash va ushbu vakilga pudratchining barcha kurilish ishlarini nazorat qilish, bajarilgan ishlarning tegishli xujjatlarini, yopilib ketadigan ishlar dalolatnomalarini, ijro xujjatlari va chizmalarini imzolash va ko'prikni joriy ta'mirlash ishlariga xulosalar berishni xamda Pudratchidan tugallangan ishlarni amaldagi qonunchilik xujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash;Pudratchining barcha murojaatlarini uch kun muddatda ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish; Pudratchining tomonidan berilgan murojaatlarga javob bermaganda yoki o'z vaktida javob bermaganda , bajarilishi lozim bulgan ishlarga uz vaktida tegishli xulosa berilmagan xollarda , qurilish ishlarining sel va suv toshkini bilan bog'likligi sababli , javob berilmagan yoki uz vaktida javob berlmagan murojaatlar, berilmagan yoki uz vaktida berilmagan xulosalar va ko'rilmagan yoki uz vaktida ko'rilmagan choralar buyicha kelib chiqadigan xar kanday oqibatlarni uz zimmasiga olish ; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 2-ilovaga

muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni uz vaktida amalga oshirish; Moliyalashtirishning tasdiqlangan tartibi buzilgan taqdirda, to'lov kechiktirilgan kunlar uchun konunda belgilangan tartibda jarimalar qo'shib tulash yoki o'z vaktida moliyalashtirilmaganligining ta'sirida kelib chiqadigan oqibatlarni uz zimmmasiga olish: mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun davomida Pudratchiga, kurilish maydonini, geodeziya nuktalarini, ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini, shaklini rasman taqdim etish va taqdim etilgan geodeziya nuqtalarini va ularining tug'ri amalga oshirilishini doimiy tekshirib borish va shu tartibda geodeziya nuqtalari va ularining to'gri qo'llanilayotganligi buyicha buyurtmachi javobgarligini uz zimmasiga olish ;

Ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari , jumladan bajarilgan yoki bajarilishi loyixada ko'zda tutilgan ishlar xajmi buyutmachi va pudratchiga bog'lik bulmagan xolatda tabiat hodisalari ( yongin, yer kimirlashi, kuchki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor, muzlash ) va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari ( fors major ) oqibatida o'zgarib ketganda yoki bajarilgan ishlar sifati tabiat xodisalari ( yongin, yer kimirlashi, ko'chki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor, muzlash va xk ) tufayli buzilganda , fors major xolatlari sababli uzgarib ketgan ish xajmlarini, sifati buzilgan ish xajmlarini belgilangan tartibda aniqlash va pudratchi vakili xamda loyixa korxonasi bilan birga ko'rib chiqish, tasdiqlash va oraliq dalolatnomalar bilan rasmiylashtirish, qushimcha kelishuv bilan belgilangan tartibda pudratchiga to'lash;

Pudratchi tomonidan bajarilgan kuprikni joriy ta'mirlash ishlarini F-2. F-3larni (3) uch kun muddat ichida kurib chikish va belgilangan tartiba to'lovga qabul qilish, taqdim etilgan xujatlarini, ularning ichki ijro xujjatlarini, oraliq dalolatnomalarini tasdiqlash yoki bajarilgan ishlarni qabul qilishni rad etish etish. Bunda bajarilgan qurilish ishlarini qabul qilishni rad etish buyicha pudratchiga rasman aloqa xati yuborish. Ushbu aloqa xatida bajarilgan ishlarni rad etish sabablari batafsil qayd etilishi shart. Agar , bajarilgan ishlar 3 kun muddat ichida tasdiqlanmasa yoki tasdiqlanmasligining sabablari ko'rsatilgan rad etish bo'yicha rasman aloqa xati berilmasa u xolda pudratchi tomonidan ko'prikni ta'mirlash ishlarini bajarilgan deb xisoblash , to'lovga qabul qilish va o'z vaktida moliyalashtirish. Shuningdek , pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish ishlari qurib chiqilib , belgilangan tartibda to'lovga qabul qilinguncha pudratchi tomonidan takdim etilgan ichki ijro xujjatlari, oraliq dalolatnomalar va boshka xujjatlarni to'lik rasmiylashtirilishini uz zimmasiga olish. Ob'ektning daryo o'rtasida xamda tabiat xodisalari bilan bog'likligi sababli o'z vaktida rasmiylashtirilmagan xujjatlar va ularning oqibatlari buyicha javobgarlikni o'z zimmasiga olish. mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

## 6. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

6.1 Pudratchi mazkur shartnomga asosan buyurtmachi tomonidan avans mablag'lari to'langan kundan e'tiboran 10 kun muddat ichida, ob'ektda ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari "22"dekabr 2022 yilda boshlanishi va "18"fevral 2023 yilda yakunlanishi lozim bulib, ishlar boshlangan kundan e'tiboran 60 kun etib belgilanadi, Tabiat xodisalari, jumladan fors major xolatlar ( yong'in, yer qimirlashi, ko'chki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor, muzlash) natijasida ob'ektda ishlash imkoniyati bulmagan kunlar bundan mustasno.

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

## 7. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

7,1. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarni bajarish (1-ilova) va moliyalashtirish (2-ilova) jadvallari asos hisoblanadi. Bunda buyurtmachi shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran 5 kun muddat ichida avans mablag'larni to'lash majburiyatini va ko'prikda jaoriy ta'mirlash ishlari tasdiklangan kundan e'tiboran 5 bank ish kuni muddatida to'lovlarni to'lashni o'z zimmasiga oladi. Ushbu moliyalashtirish tartibi buzilgan takdirda buyurtmachi pudratchiga to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,01% foiz mikdorida mikdorida jarima xamda o'z vaktida moliyalashtirilmaganligi tufayli kuprikdagi joriy ta'mirlash ishlarining bajarilmagan kismi buyicha kelib chiqadigan xar qanday oqibatlarni o'z zimmasiga oladi. Buyurtmachi Pudratchiga, mazkur shartnoma qiymatining 30 foizi yoki **234474114 (Ikki yuz o'ttiz to'rt million to'rt yuz yetmish to'rt ming bir yuz o'n to'rt )** sum miqdorida avans mablag'i o'tkazadi.

7,2. Joriy moliyalashtirish ajratilgan avans mablag'ining xar oyda amalda bajariladigan ishlar miqdoridan foiz xisobida taksimlangan xolda ushlab qolib, ob'ektning shartnomaviy qiymatining 100 foiz mikdorda amalga oshiriladi. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar, xaqiqatda qilingan xarajatlari ya'ni qurilish materiallarning yuk xatlari asosida, lekin tender qiymatidan, bir turdagi qurilish materiali smeta narxidan oshishi yoki kam olinishi mumkin, lekin bajarilgan ishlar umumiy tender qiymatidan oshmagan xolda oyma oy amalga oshiriladi. Ishlar xajmi uzgarishi va qo'shimcha loyixa xajmi bundan mustasno.

7,3. Ob'ektning so'nngi schot faktura summasi pudratchi ob'ektni Foydalanuvchiga topshirganidan so'ng buyurtmachi tomonidan moliyalashtiriladi.

7,4. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga .mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi, ob'ektga tabiat xodisalari ( yong'in, yer qimirlashi, ko'chki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor, muzlash ) va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari ( fors major ) xolatlari bundan mustasno. Ob'ekt daryo o'zanida joylashganligi sababli, shartnoma

muddati davomida, ob'ektda bajarilgan ishlar xajmi yoki bajarilgan ishlar sifati tabiat xodisalari ( yong'in, yer qimirlashi, ko'chki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor, muzlash ) ta'siri yoki boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari ( fors major ) ta'siri aniqlangan taqdirda, ob'ektning tasodifiy yuk qilinishi va shikastlanishi pudratchining zimmasida bulmaydi.

## 8. ISHLARNI BAJARISH

8.1. Buyurtmachi ob'ektda o'z vakilini - texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. Pudratchi texnik kuzatuvchini ishlashi uchun sharoit yaratadi. Texnik kuzatuvchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan, ta'mirlash ob'ektida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi ta'mirlash davrida Buyurtmachining vakilini (texnik kuzatuvchini) ob'ektda ish joyi, lozim topilganda yotoq joy (dala sharoitida) ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

8.5. Pudratchi ob'ektda bajarilgan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni Buyurtmachi tomonidan mazkur ob'ekt uchun biriktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 20 kunidan 25 kunigacha ob'ektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni (belgilangan shakllarda ijro hujjatlari bilan) keyingi oyning birinchi kuniga qadar Obodonlashtirish boshqarmasiga topshiradi. Ob'ektning daryo uzanidagiligi inobatga olib, bajarilgan ishlar xajmi kunma kun yoki xafta davoimda xisobga olib boriladi va oy oxirida xisobotga olinadi. Ish jarayonidagi kunlik ish xajmlari buyurtmachi zimasiga olingan xisoblanadi. Bunda bajarilgan ishlar xajmi xaqiqatda kilingan sarf xarajatlar, jumladan qurilish materiallari yuk xatlariga asosan, lekin tender kiymatidan oshmagan mikdorda rasmiylashtiriladi. Ishlar xajmining uzgarishi va qushimcha qilingan loyixalar qiymati bundan mustasno.

8.6. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.7. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini Davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.8. Ob'ektda umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini rasman taqdim etadi. Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilari

rasman takdim etilmaganda yoki uz vaktida takdim etmaganligi, noto'g'ri geodeziya nuqtalari taqdim etilishi natijasida kurilish ishlarining sifati yoki miqdorida o'zgarishlar kelib chiqsa u xolda ushbu oqibatlarning javobgarligini buyurtmachi o'z zimmasiga oladi.

8.9. Pudratchi buyurtmachidan qabul qilib olgan geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

8.10. Pudratchi o'zi tomonidan ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.11. Alohida mas'uliyatli konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitekqurilishnazorat" inspektsiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

8.12. Yopilib ketadigan ishlarni ularning har bir turi (bosqichi) bo'yicha qabul qilib olish ularning keyingi tur (bosqich) ishlari boshlangunga qadar bajarilishiga qarab amalga oshiriladi. Ishlarni quyidagi tarkibdagi komissiya qabul qilib oladi: Buyurtmachining vakili – texnik nazoratchi (rais), pudratchi tashkilot vakili – ish bajaruvchi yoki usta, laborant va geodezist (zarur hollarda), yo'lga xizmat ko'rsatadigan yo'l tashkiloti vakili, loyiha tashkiloti vakili (ko'tarib turuvchi konstruktsiyalarni qabul qilib olishda). Yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish natijalari o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda qabul qilinadigan ishlarning loyiha, normativ-texnik hujjatlar, standartlar talablariga muvofiqlik darajasi aks ettiriladi, shuningdek qabul qilinadigan ishlarga baho va ishlarning keyingi turlarini bajarishga ruxsat beriladi. Dalolatnomaga o'lchovlar qaydnomasi va laboratoriya sinovlari natijalari ilova qilinadi. Ushbu ichki ijro xujjatari bajarilgan ishlarni tulovg kabul kilish F-2 va F-3 xujjalari tasdiqlangunga qadar to'lik rasmiylashtirilishi lozim .

8.13. Pudratchi Buyurtmachining qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftarlariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib

xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga va qiymatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

Ob'ektni tabiiy ofat okibatlarini bartaraf etish jarayonida texnologik jarayon olib borilishining to'g'riligi, bajariladigan ishlar hamda foydalaniladigan materiallarning sifati yuzasidan texnik nazoratni amalga oshirish, shuningdek yopilib ketadigan va oraliq ishlarni qabul qilib olishda Buyurtmachi tomonidan komissiya tarkibida ishtirok etish uchun ushbu ob'ektga xizmat ko'rsatadigan yo'l tashkiloti jalb etilishi mumkin.

Ob'ektning bajarilgan ishlari va tugallangan ob'ektlarini oylik (oraliq) qabul qilib olish buyurtmachi va pudratchi tomonidan rasmiylashtiriladi. Bajarilgan ishlar va yo'llarning tugallangan konstruktiv elementlarini oylik (oraliq) qabul qilib olish natijalari belgilangan shaklda ma'lumotnoma-hisob-faktura bilan, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari hisob-kitob jadvalida aks ettirilgan holda belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari va mablag'lari hisobidan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 35-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, kunlik o'rtacha havo harorati va yog'ingarchiliklar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi. Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

## 9. ISHLARNI QO'RIQLASH

9.1. Pudratchi ta'mirlash ishlari boshlanishidan tugallangungacha va ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

## 10. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari ( yong'in, yer qimirlashi, ko'chki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor, muzlash ) va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch

holatlari ( epidemiya , urush ) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Bunda daryo o'zanidagi ko'prikni joriy ta'mirlash ishlari buyicha belgilangan majburiyatlar va ishlarni bajarish rejalari yengib bulmaydigan kuchlar xolatlari va ularning oqibatlari davom etgan vaqtga mutanosib tarzda uzaytiriladi va tomonlar bu vaqtda majburiyatdan qisman yoki to'lik ozod etiladilar.Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar va majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari( yong'in, yer qimirlashi, ko'chki , sel, to'fon, quyun, suv toshqini, do'l, qor , muzlash ,epidemiya , urush )va ularning okibatlari ( ko'chki okibatida ishlash imkoniyati bo'lmasa- ko'chki bartaraf qilingunga qadar, yongin xodisalari okibatlari bartaraf kilingunga kadar, sel, suv toshkini natijasida ishlash imkoniyati bo'lmaganda sel, suv toshqinining tuxtatishi va ishlash mumkin bo'lgan xolatga kelgunga qadar, do'l, qor , muz vaktlarida shaxarsozlik normalari talablarini bajarishga ta'sir kilgan vaktda qadar ) amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2 Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 11. TABIIY OFAT OKIBATLARINI BARTARAF ETISH BO'YICHA TUGALLANGAN OBЪEKTNI QABUL QILIB OLISH

11.1. Daryo uzanidagi kuprikni joriy ta'mirlash ishlari tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek ko'prikni joriy ta'mirlash bo'yicha tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olish shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga asosan amalga oshiriladi. Ko'prikni joriy ta'mirlash bo'yicha ob'ekt yoki uning uchastkalari (ishga tushirish majmualari) ob'ektning tugallanganligi va u qabul qilib olishga tayyorligi to'g'risida pudratchi tashkilotning xabarnomasidan keyin, maxalliy ishchi komissiya tomonidan foydalanishga qabul qilinadi.

Pudratchi tashkilot ishchi komissiyaga xujjatlarni taqdim etadi:

- qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda ishtirok etgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarning turlari va hajmlari hamda mas'ul ijrochilari ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;
- qabul qilishga taqdim etilgan ishlarning texnik loyihasi va ishchi chizmalari to'plami, ijro sxemlari;
- yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish dalolatnomalari; yo'l-qurilish materiallari va yo'l to'shamalarining konstruktiv qatlamlaridan kesiklar (tuproq

jinslari) sinovlari jurnallari, muvofiqlik sertifikatlari; ishlarni bajarish va mualliflik nazorati jurnallari;

11.2. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi asosida Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olinadi.

